


QURILISH ISHLARI

2019 yil yanvar-iyun

2019 yilning yanvar-iyun oylarida O'zbekiston Respublikasida jami 34 351,2 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 120,0 %ni tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasida qurilish ishlari hajmi



Joriy davrda jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **8 338,8** mlrd. so'mni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda **7,2 %**ga ko'p ishlar bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkich darajasidan **2,9 %** punktga kamaygan.


Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi joriy davrda qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan keskin oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **54,6 %**i to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan **4,4 %** punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **130,7 %**ni tashkil etgan holda **18 759,6** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **1,5 %** punktga kamayib, **21,1 %**ni tashkil etdi va **7 252,8** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. O'tgan yilning mos davridagi hajm bilan solishtirganda **111,8 %**ni tashkil etgani kuzatildi.

Davlat va nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar bo'yicha qurilish ishlari

2019 yil (yanvar-iyun)

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **2 073,5** mlrd.so'm yoki 2018 yilning yanvar-iyuniga nisbatan **161,1 %** qurilish ishlari bajarildi, nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa **32 277,7** mlrd.so'm ishlar bajarilib, o'sish sura'ti **118,1 %** ni tashkil etdi. Ularning respublikadagi ulushlari mos ravishda **6,0 %** va **94,0 %**ni tashkil etdi



77,1 %

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining **77,1 %** i yoki **26 485,5** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarini yaratishga qaratilgan.

88,8 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **7 405,6** mlrd. so'm ishlar bajarilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **88,8 %** tashkil etdi.

89,6 %

Norasmiy sektor hissasiga **6 559,0** mlrd. so'm yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **90,4 %** yangi qurilish bo'yicha ishlar bajarildi.

66,7 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan **12 520,9** mlrd. so'm, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **66,7 %** yangi qurilish ishlari bo'yicha ishlar bajarildi.

Hududlar bo'yicha o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari


2019 yil (yanvar-iyun)

(mlrd.so'm)

	Qurilish ishlari hajmi	O'tgan yilga nisbatan, foizda	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya
O'zbekiston Respublikasi	34 351,2	120,0	26 485,5
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 855,2	144,6	1 369,3
viloyatlar:			
Andijon	1 903,0	116,3	1 275,6
Buxoro	2 296,2	117,6	1 516,0
Jizzax	1 136,9	123,5	908,0
Qashqadaryo	2 519,4	121,8	1 820,1
Navoiy	1 635,3	129,8	1 256,8
Namangan	1 314,7	121,1	955,6
Samarqand	2 285,1	119,4	1 825,6
Surxondaryo	1 934,5	124,1	1 635,5
Sirdaryo	690,0	125,3	476,1
Toshkent	1 835,0	133,3	1 370,1
Farg'ona	1 997,2	120,8	1 306,2
Xorazm	1 307,5	114,8	1 068,4
Toshkent sh.	7 494,4	129,7	5 555,4

Respublikada Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari


(jamiga nisbatan % da)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)




Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **22,3 %**ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **5,4 %** punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **7,2 %** punktga ko'payib, **49,7 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **1,8 %** punktga kamayib, **28,0 %**ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)




Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **40,9 %** ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **7,7 %** punktga ko'paydi..

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **56,1 %** (**6,7 %** punktga kamayish) va norasmiy sektorning ulushi **3,0 %**ni (**1,0 %** punktga kamayish) tashkil etdi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **0,6 %** punktga ko'paydi va **19,5 %**ni tashkil etdi. Qolgan **80,5 %** kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **0,6 %** punktga kamaydi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari


2019 yil (yanvar-iyun)

(mlrd.so'm)

	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha:		
		Binolar va inshootlar qurilishi	Fuqarolik qurilish ob'ektlari	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
O'zbekiston Respublikasi	34 351,2	25 388,6	4 434,5	4 528,1
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 855,2	1 296,8	232,0	326,4
viloyatlar:				
Andijon	1 903,0	1 357,0	184,9	361,1
Buxoro	2 296,2	1 656,3	336,3	303,6
Jizzax	1 136,9	878,2	159,6	99,1
Qashqadaryo	2 519,4	1 854,4	310,4	354,7
Navoiy	1 635,3	1 185,1	174,6	275,6
Namangan	1 314,7	937,2	118,8	258,7
Samarqand	2 285,1	1 694,3	312,0	278,8
Surxondaryo	1 934,5	1 348,8	472,4	113,3
Sirdaryo	690,0	504,5	113,8	71,7
Toshkent	1 835,0	1 340,2	212,2	282,6
Farg'ona	1 997,2	1 460,8	279,9	256,5
Xorazm	1 307,5	1 053,1	170,3	84,1
Toshkent sh.	7 494,4	4 675,2	1 357,3	1 461,9

Jami qurilish ishlarida hududlarning ulushi

(jamiga nisbatan % da)




Hududlar bo'yicha qurilish ishlari tarkibida Toshkent shahri qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan ishlar Respublika bo'yicha jami hajmning **21,8 %**ini tashkil etdi. Bu **7 494,4** mlrd. so'm qurilish ishlari demakdir. Bunday katta hajmdagi qurilish ishlari Respublika bo'yicha eng yirik qurilish

tashkilotlarining hamda ko'plab kichik qurilish korxonalari va mikrofirmalarni Toshkent shahrida joylashgani bilan izohlanadi. Shu bilan birga mazkur hududda olib borilayotgan keng ko'lamlı qurilish ishlari, jumladan, metro liniyalari qurilishi, "Tashkent City" xalqaro ishbilarmonlik markazi qurilishi, davlat dasturlari doirasida va boshqa sotish uchun mo'ljallangan ko'plab turar-joylarning qurilishi jadal olib borilayotganligi mazkur hududdagi qurilish ishlari hajmining katta bo'lishiga sabab bo'lmoqda

Hududlar bo'yicha qurilish ishlarining o'sish sur'atlari

(% da)



Hududlarda yuqori o`shish sur`atlarini ta`minlagan qurilish ishlari

Qoraqalpog'iston Respublikasi (144,6 %):

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 16 yanvardagi 37-son qaroriga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi Mo'ynoq tumanini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari;

- TQVZ texnogen ajratmalarini qayta ishlash kompleksi qurilishining 1-2 bosqichi. KP 73 dan TQVZ gacha bo'lgan texnologik quvurlarning ichki tarmoqlaridagi suv quvurlarini qurish;

- Xo`jayli va Qo'ng'iroq tumanlarida kollektorlarini qazish , "Hayranli" va "Hatep" kanallarini rekonstruksiya qilish;

- Ellikqal'a tumanida "KT-1", "K-5", "Akchakul", "KT-3", "K-4", "K-11", "Guliston", "K-1 Shortanbay" kollektorlari, shuningdek, Nukus tumanida "Kerdar" kanalini ta'mirlash - tiklash ishlari bo'yicha katta hajmdagi qurilish ishlari bajarildi.

Toshkent shahar (129,7 %):

- Ko'prik va "Yunusobod" metro liniyasi qurilishi, elektr poyezdlar uchun halqa temir yo'l qurilishi, shuningdek, "Angren - Pop" temir yo'l liniyasi atroflarini to'sish;

- Toshkent metropolitenining Sergeli liniyasi qurilishi, Maxtumquli (Taraqkiyot) ko'chalari va Ohangaron yo'li kesishmasida yo'l o'tkazgich qurilishi, yer usti halqa liniyasini qurish ishlari amalga oshirildi;

- "Toshkent city" va "Olmazor city" lar qurilishi;

- Sobiq Toshkent chinni zavodi hududida "Yangi Olmazor" turar-joy majmuasi qurilishi;

- "Oloy" turar-joy binosi qurilishi;

- "Toshkent - Sharqiy" aerodromi bazasida zamonaviy fuqaro aeroporti

majmuasi qurilishi;

- "Navro`z" bog`i qurilishi;
- "O`zbekfilm" bino va inshootlarini rekonstruksiya qilish;
- Xalqaro Islom madaniyati markazi qurilishi.

Navoiy viloyati (129,8 %):

- "Ko'kpatas " va "Daugiztau" konlarining og`ir rudalaridan oltin qazib olish texnologiyasini takomillashtirish, "Auminzo-Amantay" oltin ma'danlarini koni (5-GMZ) qurilishi (I-II bosqich), "Amudaryo-Zarafshon" suv yo'lining 3 - yo`nalishi bo`yicha nasos stansiyasi rekonstruksiya;

- "Samarqand-Buxoro-Turkmanboshi" M-37 avtomobil yo`lini ta`mirlash;
- Karmana, Xatirchi, Navbahor, Qiziltepa tumanlarida kanallar, drenajlar va kollektorlar qazish ishlari.

Qashqadaryo viloyati (121,8 %):


- Qarshi shahridagi "Olimlar" ko'chasida yo'l qurilishi;
- "Toshkent-Termiz" yo'nalishidagi 1240-1260 km yo'lining rekonstruksiya;
- Yakkabog' tumanida A.Temur ko'chasida yo'lining rekonstruksiya;
- "Qarshi-Kitob" yo'nalishidagi temir yo'lini elektrlashtirish.

Surxondaryo viloyati (124,1 %):

- Qumqo`rg`on tumanida qidiruv-burg`ulash ishlari;
- Muzrabot tumanida maishiy gaz balonlarini to'ldirish shahobchasi rekonstruksiya;
- "Janubiy Surxon", "Qumqo`rg`on" kanallarini rekonstruksiya qilish ishlari;
- Termiz tumanida namunali loyihalar asosida qurilgan turar-joylarda elektrlashtirish ishlarining bajarilishi va boshqalar.

Hududlar bo'yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)



- Yirik pudrat tashkilotlari
- Kichik korxonalar va mikrofirmalar
- Norasmiy sektor

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng kam ulush Samarqand (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 1,3 %i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 157,5 %), Sirdaryo (mos ravishda, 3,0 % va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 115,1 %) va Jizzax viloyatlarida (mos ravishda, 3,1 % va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,7 marta ko'paygan) kuzatildi.

O'zbekiston Respublikasi
Davlat statistika qo'mitasi

Investitsiyalar va qurilish statistikasi
boshqarmasi

Nashr uchun mas'ul:
Aloqa telefoni:

J.Saipov
(71) 230-80-56